

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ASRARXONOVA E'TIBOR ABDUVAHOB QIZI

**ONA SHAXSINING AUTIZM SPEKTRIDA BUZILISH ANIQLANGAN
BOLA RUHIY RIVOJLANISHIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Asrarxonova E'tibor Abduvahob qizi

Ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'siri.....3

Асрарханова Эътибор Абдувахоб кизи

Психологическое влияние личности матери на психическое развитие ребёнка с диагнозом расстройство аутистического спектра.....29

Asrarkhanova E'tibor Abduvakhob kizi

Psychological influence of the mother's personality on the mental development of a child diagnosed with autism spectrum disorder.....57

E'lon qilingan nashr ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....62

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ASRARXONOVA E'TIBOR ABDUVAHOB QIZI

**ONA SHAXSINING AUTIZM SPEKTRIDA BUZILISH ANIQLANGAN
BOLA RUHIY RIVOJLANISHIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/P624 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (psi-ik.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.R.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «_____» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi 27-uy, tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 «_____» _____ da tarqatildi.

(2024-yil «_____» _____ dagi reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

O.E.Hayitov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori, professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning psixik, jismoniy taraqqiyotini o'rganish va ularning oila muhitiga integratsiyasi, bemor bolalar ota-onalarining psixoemotsional holati, autist bolalar onalarining ruhiy xususiyatlarini o'rganish muammosi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining xalqaro kasalliklar klassifikatori - ICD-11 da qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda 10 milliondan ortiq insonlarda autizm sindromi aniqlangan. Har yili bu ko'rsatkich 11-17 %ga ortib bormoqda, ya'ni o'tgan asrning 90-yillarida har 5000 nafar boladan 1 nafariga autizm tashxisi qo'yilgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 5000 nafar boladan 50 nafar bolaga to'g'ri kelmoqda.¹ Mazkur ko'rsatkichlardan ko'rinadiki, autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy, tibbiy, pedagogik, psixologik yordam ko'rsatishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy-amaliy tadqiqot markazlarida ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'siri yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada bolalarning autizm spektrida buzilish boshlanishini aniqlash, maxsus tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish, ularning kognitiv sohasini rivojlantirish, emotsional jihatdan barqarorligini ta'minlash, xulq-atvor buzilishlarini tiklash va ota-onalarni ushbu muammoga nisbatan qiyinchiliklarda psixologik qo'llab-quvvatlash, shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy, ta'lim, kasbiy yoki faoliyatning boshqa muhim sohalarida buzilishni oldini olishning ijtimoiy-tibbiy mexanizmlarini ishlab chiqish, ona-bola munosabatlarining o'ziga xos muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoya, ijtimoiy-reabilitatsiyaga muhtoj bolalari bor oilalarga psixologik xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirishning zarur me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi: «Doimiy parvarishga muhtoj bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy yordamning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirishda yangi yondashuvlarni joriy etish»², ko'p qirrali va o'ta murakkab jarayon ekanligini ko'rsatadi. Bu esa ona shaxsini autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'sirini tadqiq etish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun mustahkam asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining 1-may 2023-yildagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, 15-oktyabr 2020- yildagi O'RQ-641-sonli «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 17-fevraldagi PF-74-son «Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha

¹ [https://psychlib.ru/mgppu/studworks/BrazhenkovaDM_2014/BOr-ma-013.htm#\\$p1](https://psychlib.ru/mgppu/studworks/BrazhenkovaDM_2014/BOr-ma-013.htm#$p1)

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 17 февралдаги “Ногиронлиги бўлган шахсларни ҳамда аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларини қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-74-сон Фармони./ <https://lex.uz/ru/docs/5865484>

chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2023- yil 27-fevraldagi PQ-74-son «Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2023-yil 19-iyundagi PQ-196 sonli «Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz psixolog olimlaridan D.U.Abdullayeva, F.A.Akramova, Sh.R.Baratov, Z.B.Bilolova, V.M.Karimova, K.K.Mamedov, G'.B.Shoumarov, O'.B.Shamsiyev, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari, oilalardagi shaxslararo munosabat xususiyatlari, oilaga ko'rsatiladigan psixologik xizmat masalalari tadqiq etilgan bo'lsa, N.R.Jumaniyazova, L.R.Mo'minova, L.V.Nazirova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuhamedova va boshqa olimlar tomonidan autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning ijtimoiylashuvi, psixologik rivojlanishi, ona-bola munosabatlarining o'ziga xos jihatlari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq, O'zbekistonda autizm spektrida buzilishi aniqlangan bolalari bor onalarning psixoemotsional holatini bola psixik taraqqiyotiga ta'siri muammosi alohida tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi psixolog olimlaridan V.I.Arbuzov, T.B.Andreeva, E.E. Alekseeva, V.A.Ababkov, O.B.Bogdoshina, E.R.Bayenskaya, V.M.Bashina, A.A.Bodalev, L.I.Bojovich, M.Boen, A.Y.Varga, L.I.Vasserman, T.N.Visotina, L.S.Vigotskiy, K.Gilbert, S.S.Galaskaya, L.Y.Gozman, Y.S.Grebelskaya, O.V.Gusaeva, A.I.Zaxarov, D.N.Isayev, S.N.Kashtanova, I.B.Karvasarskaya, M.M.Libling, K.S.Lebedinskaya, I.Y.Levchenko, V.N.Myasishev, I.I.Mamaychuk, O.S.Nikolskaya, L.S.Pechnikova, T.N.Piters, P.E.Suxareva, Y.O.Smirnova, N.V.Simashkova, V.Satir, V.V.Tkachyova, L.B.Shnayder, Y.G.Eydemiller va boshqalarning ilmiy izlanishlarida autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, boshqa ruhiy kasalliklardan farqlari, bu toifa bolalarni tibbiy-psixologik va pedagogik tashxislash usullari, ular bilan ota-ona munosabatlarining o'ziga xosligi, ularning ota-onalari bilan tashkil etiladigan reabilitatsion choralar ahamiyati masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan G.Asperger, E.Bleyler, B.Bettelxeym, Baron Cohen, M.M.Bristol, L.Eyzenbergom, R.R.Fevyell, C.Gillberg, K.Gilbert, S.Harris, F.Happe, B.Hermelin, Dj.M.Itar, L.Kanner, M.E.Lamb, G.Mesibov, D.J.Meyer, D.T.Marsh, E.Schopler va boshqalar tomonidan autizmning kelib chiqish sabablari va autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy tadqiqot ishi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi PZ-20170923121-raqamli «Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2018-2020 yy.).

Tadqiqotning maqsadi

ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'sirini tadqiq etish asosida psixoemosional holatni barqarorlashtiruvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ona shaxsining psixoemotsional holatlari autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar ruhiy rivojlanishiga bog'liq ekanligini ilmiy tadqiq etish;

ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'sirida reaktiv va shaxsiy xavotirlanishlar sodir bo'lishiga ko'ra psixoemotsional holat ta'sirida yuzaga keluvchi individual farqlar, aloqadorliklarni dalillash;

onalarning autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandiga va boshqa shaxslarga anglangan hamda anglanmagan munosabatlarini tahlil qilish, ona shaxsidagi xavotirlanish darajasini kamaytirishda ularning kognitiv, emotsional va xulq-atvor sohalariga ta'sir qilishning ahamiyatini o'rganish;

onalarning autizm spektri buzilishi bo'yicha bilimlarini shakllantirish, bolalardagi nutq ko'nikmalarini shakllanishini, hissiy qobiliyatlar rivojlanishini va ijtimoiylashuvini yaxshilashda ona rolini oshirishga imkon beruvchi psixokorreksion dastur va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'sir jarayoni olingan bo'lib, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi - RBIMM, RBIMMning Qarshi mintaqaviy filiali, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Xorazm viloyat boshqarmasi qoshidagi inklyuziv ta'lim markaziga jalb qilingan autizm spektrida buzilishi bor bolalar bolalarning 150 nafar onalari, farzandi sog'lom bo'lgan bolalarning 100 nafar onalari jalb etilib, respondentlarning umumiy soni 250 nafarni tashkil etdi.

Tadqiqotning predmetini ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'sir xususiyatlari, psixoemotsional o'zgarishlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, so'rov metodlari, shuningdek, Bernard Rimland va Stiven Edelsonlarning autizmni baholashda (Autism Treatment Evaluation Checklist) ATEC testi, A.Y.Varga, V.V.Stolinlarning «Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati» test-so'rovnomasi, Ch.D.Spilberger, Y.L.Xaninlarning «Reaktiv (vaziyatli) va shaxsiy xavotirlik darajalari tashxisi» so'rovnomasi, Ch.Osgudning «Semantik differensial» testi, E.B.Fantalovaning «Yetti holat» metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan: K.Pirson r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezoni yordamida tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning ruhiy rivojlanishi shaxsdagi «ichki konflikt», «ichki vakuum», «ichki tashvish», «tushkunlik», «apatiya»ning boladagi ijtimoiylashuv, hissiy qobiliyatlarni idrok qilish hamda muloqot ko'nikmasini shakllanishiga integral ta'siri tufayli onadagi psixoemosional holatlarni ifodalanishiga bog'liq ekanligi dalillangan;

shaxsda namoyon bo'luvchi psixemosional holatlar differensiatsiyasiga ko'ra bolaning ijtimoiy integratsiyasi, jismoniy salomatligidagi o'zgarishlar bilan bog'liq jarayonlarni o'z hissiy prizmasi asosida idrok etishi tufayli autizm spektrli buzilishlari aniqlangan farzandlarning onalarida «vaziyatli» va «shaxsiy» xavotirlanishning o'zaro integral namoyon bo'lishi isbotlangan;

autizm spektrida buzilish bor bolalar onalarining o'zlari haqidagi semantik tasavvurlari «sog'lom bola tarbiyalash istagi» ning reallikka nomutanosibligi bois hayotiy qadriyatlardagi «erkin ayol obrazi» «farzandni bee'tibor qoldirmaslik» holatiga ustuvorlik berish orqali transformatsiyalanishi tufayli «men oilamda» va «men bolam bilan birga» rakursida differensial farqlanishi asoslangan;

onaning autizm spektrida buzilish bor shaxsning psixik taraqqiyotiga ta'siri natijasida ayolning «hissiy donor» sifatida bola holatidagi o'zgarishlarga nisbatan sezgirligi hamda uning kechinmalarni idrok qilish va muloqot ko'nikmalarini rivojlanishiga sabab bo'lishi tufayli farzandga nisbatan «emosional qabul qilish», «kooperatsiya» munosabatining ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandli onalarning psixoemotsional holatini aniqlashga imkon beruvchi adekvat psixodagnostik metodika va so'rovnomalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

ona psixoemotsional holatini autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'siri ko'rsatkichini yaxshilash bo'yicha trening dasturi ishlab chiqilgan va uning samaradorligi baholangan;

ona psixoemotsional holatini autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'sir xususiyatlari aniqlanib, asosli xulosalar ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot respondentlarining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslanganligi, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilganligi, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilganligi va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash «MS EXCEL», «SPSS 28» dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlanganligi va shu asosda psixologik interpretatsiya qilinganligi, xulosa, taklif, tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlanganligi; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning ruhiy rivojlanishida onalarning roli haqidagi ilmiy tasavvurlarning to'ldirilgani, unda ko'rsatilgan muammo

hamda uni yechish uchun taklif etilgan ilmiy tushuncha va tasavvurlarni kengaytirishi, olingan ilmiy xulosalardan manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qo'lg'a kiritilgan natijalardan oliy ta'lim muassasalarida «Maxsus psixologiya», «Ontogenez psixologiyasi», «Differensial psixologiya», «Psixokorreksiya» fanlaridan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlash, psixologlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari hamda ta'lim muassasalarida psixologik xizmat ko'rsatish samaradorligini ta'minlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'siriga oid muammoni tadqiq etish asosida:

autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning ruhiy rivojlanishi shaxsdagi «ichki konflikt», «ichki vakum», «ichki tashvish», «tushkunlik», «apatiya»ning boladagi ijtimoiylashuv, hissiy qobiliyatlarni idrok qilish hamda muloqot ko'nikmasini shakllanishiga integral ta'siri tufayli onadagi psixoemosional holatlarni ifodalanishiga bog'liq ekanligi haqidagi xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 26-oktabrdagi PM-78sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 1-noyabrdagi PM-78a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi «ichki konflikt», «ichki vakum», «ichki tashvish», «tushkunlik», «apatiya»ning boladagi ijtimoiylashuv, hissiy qobiliyatlarni idrok qilish hamda muloqot ko'nikmasini shakllanishiga integral ta'siri tufayli onadagi psixoemosional holatlarni ifodalanishiga bog'liq ekanligi asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

shaxsda namoyon bo'luvchi psixoemosional holatlar differensiatsiyasiga ko'ra bolaning ijtimoiy integratsiyasi, jismoniy salomatligidagi o'zgarishlar bilan bog'liq jarayonlarni o'z hissiy prizmasi asosida idrok etishi tufayli autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandlarning onalarida «vaziyatli» va «shaxsiy» xavotirlanishning o'zaro integral namoyon bo'lishi bilan bog'liq xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 26-oktabrdagi PM-78sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 1-noyabrdagi PM-78a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada shaxsda namoyon bo'luvchi psixoemosional holatlar differensiatsiyasiga ko'ra bolaning ijtimoiy integratsiyasi, jismoniy salomatligidagi o'zgarishlar bilan bog'liq jarayonlarni o'z hissiy prizmasi asosida idrok etishi tufayli autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandlarning onalarida «vaziyatli» va «shaxsiy» xavotirlanishning o'zaro integral namoyon bo'lishini tahlil etishga sharoit yaratilgan;

autizm spektrida buzilish bor bolalar onalarining o'zlari haqidagi semantik tasavvurlari «sog'lom bola tarbiyalash istagi» ning reallikka nomutanosibligi bois hayotiy qadriyatlardagi «erkin ayol obrazi» «farzandni bee'tibor qoldirmaslik» holatiga ustuvorlik berish orqali transformatsiyalanishi tufayli «men oilamda va «men bolam bilan birga» rakursida differensial farqlanishiga asoslangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy

markazining 2023-yil 26-oktabrdagi PM-78sonli buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2023-yil 1-noyabrdagi PM-78a-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada autizm spektrida buzilish bor bolalarning onalarini o‘zlari haqidagi semantik tasavvurlari «sog‘lom bola tarbiyalash istagi»ning reallikka nomutanosibligi bois hayotiy qadriyatlardagi «erkin ayol obrazi» «farzandni bee’tibor qoldirmaslik» holatiga ustuvorlik berish orqali transformatsiyalanishi tufayli «men oilamda va «men bolam bilan birga» rakursida differensial farqlanishi bog‘liqlik xarakteriga ega ekanligini tahlil qilish imkoniyati oshirilgan;

onaning autizm spektrli buzilishlari bor shaxsning psixik taraqqiyotiga ta’siri natijasida ayolning «hissiy donor» sifatida bola holatidagi o‘zgarishlarga nisbatan sezgirligi hamda uning kechinmalarni idrok qilish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlanishiga sabab bo‘lishi tufayli farzandga nisbatan «emosional qabul qilish», «kooperatsiya» munosabatining ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillangan ma‘lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2023-yil 26-oktabrdagi PM-78 sonli buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2023-yil 1-noyabrdagi PM-78a-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada onaning autizm spektrida buzilish bor shaxsning psixik taraqqiyotiga ta’siri natijasida ayolning «hissiy donor» sifatida bola holatidagi o‘zgarishlarga nisbatan sezgirligi hamda uning kechinmalarni idrok qilish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlanishiga sabab bo‘lishi tufayli farzandga nisbatan «emosional qabul qilish», «kooperatsiya» munosabatining ustuvor xarakterga ega ekanligining amaliy imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va o‘rganilganlik darajasi tahlili keltirilgan, ilmiy tadqiqot ishlari reja mavzulari bilan bog‘liqligi asoslangan, ilmiy tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, qo‘llanilgan metodlar, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy tahlili bayon etilgan, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'siri muammosining ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida autizm spektri buzilishi va uning klassifikatsiyasi, autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar psixik taraqqiyotining tadqiq qilinishi va autizm spektrida buzilishi aniqlangan bola rivojlanishiga ota-ona munosabatlarining ta'siri tahlil etilgan.

Autizm – grekcha «autos», ya'ni «o'zi» degan ma'noni anglatib, reallikdan uzoqlashish, tashqi dunyodan ajralish va tashqi olam bilan kommunikativ funksiyaning buzilishi kabilarni o'z ichiga oluvchi sindrom hisoblanadi.

Autizm spektri – bu odatda ijtimoiy munosabatlar va muloqotdagi qiyinchiliklar, takrorlanadigan xatti-harakatlar, cheklangan qiziqishlar va hissiy stimullarga g'ayrioddiy javoblar bilan tavsiflangan bir qator neyrorivojlanish xastalik sanaladi. Bu tushuncha odatiy foydalanishda autizm, professional tashxis kontekstida autizm spektri buzilishi (inglizcha: autism spectrum disorder, ASD) deb ataladi. Ammo ikkinchi atama neyroxilma-xillik tarafdorlari, tadqiqotchilar va ko'plab autistik odamlar o'rtasida buzilish so'zidan foydalanilganligi va uning diagnostik kontekstdan tashqarida foydaliligi haqidagi savollar tufayli bahsli bo'lib qolmoqda.


Spektr buzilishi – bu autistik odam o'ta noodatiy tarzda amalga oshirishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar majmui: mazkur spektr buzilishi guruhiga mansub har qanday odam u bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarning hammasini emas, ba'zilarini u yoki bu darajada namoyon qilishi mumkin.

Autizm spektrida buzilish turlari quyidagilardan iborat:

- Bolalik autizmi;
- Rett sindromi;
- Bolalikdagi parchalanish buzilishi;
- Atipik autizm;
- Asperger sindromi;
- O'rtacha va og'ir aqliy zaiflik bilan giperkinetik buzilish;
- Boshqa umumiy rivojlanish buzilishlari.

«**Ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola rivojlanishiga ta'sirining empirik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta'sirini tadqiq qilishning metodologik asoslari, dialektika tamoyillari, tadqiqot ishiga determinizm, tizimli, shaxs nuqtai nazaridan yondashuv tamoyillari, V.N.Myasishevning munosabatlar nazariyasi, L.S.Vigotskiyning anomal rivojlanish konsepsiyasi, nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalayotgan oilaga psixologik yordamga yonaltirilgan I.Yu.Levchenko, V.V.Tkachevalarning rivojlanish g'oyalari, bolalarning emotsional rivojlanishiga bag'ishlangan Dj.Boulbining «bog'lanib qolish» nazariyasi, V.Franklning ekszistensial tahlil va logoterapiya nazariyasidan, amerikalik psixiatr Jorj Engelning biopsixosotsial modelidan metodologik asos sifatida foydalanildi.

Ona shaxsining psixoemotsional holatining o'ziga xos jihatlari tahlil qilish maqsadida E.B.Fantalovanning «7 holat» metodikasi o'tkazildi va natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. E.B.Fantalovning «7 holat» metodikasi bo'yicha ona psixoemotsional holatidagi differensial farqlar, n=250

1-rasmda sog'lom va autizm spektrida buzilishlari bor bolalar onalarining psixoemotsional holatidagi differensial farqlar keltirilib, ichki nizo ($U=-11,4$; $p \leq 0,001$) bilan bog'liq emotsional holatlar orasida ahamiyatli statistik farqlar aniqlangan. Onalardagi ichki konflikt eksperimental guruhda yuqori bo'lib, shaxsning o'zini istaklari, e'tiqodi, axloqiy qarashlari, hislari orasidagi ichki qarama-qarshilikni anglatadi. Autizm spektrida buzilishlari bor bolalarning onalaridagi mazkur holatning yuqoriligi farzandi bilan munosabatlar va onalik burchi, onalik mehri hamda bolani jamiyatga moslashishi bilan bog'liq atrofdagilarning ijtimoiy fikrlari orasidagi ichki kurashlar «kognitiv dissonans» larni kelib chiqqanligi tufayli yuzaga kelgan.

Eksperimental guruhda «Ichki vakuum» holat bo'yicha, ($U=-9,4$; $p \leq 0,001$) bu holat ham yuqori ekanligi aniqlandi. Buning asosiy sabablaridan biri autizm spektrida buzilishlari mavjud bolalarning onalarida «sog'lom bola tarbiyalash bilan bog'liq istaklari» ning «reallik» bilan mutanosib bo'lmaganligi bois, hayotiy qiziqishlar, qadriyatlar transformatsiyalanib, o'z mazmunini yo'qota boshlaydi va onada ekzistensial bo'shliqlar yuzaga kelishi bilan ifodalandi.

Ilmiy tadqiqotimiz natijalariga ko'ra ichki tashvish mezoni bo'yicha ($U=-12,4$; $p \leq 0,001$) ham autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning onalarida yuqoriroq natijaga ega ekanligi aniqlangan. Bu holat ham bolaning alohida g'amxo'rlikka ehtiyoji balandligi bilan bog'liq bo'lib, ona o'zining ko'p vaqtini farzandi bilan o'tkazadi. Natijada doimiy farzandidan xavotirlanish, uning kelajagi bilan bog'liq ekzistensial bo'shliqlar onada ichki xavotirlanishni kuchaytirib yuboradi.

Tadqiqot natijalarida g'am, anduh, tushkunlik mezoni bo'yicha ($U=-8,3$; $p \leq 0,001$) eksperimental guruh natijalari nazorat guruh natijalariga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Bu emotsional holat autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalarida yolg'iz qolishga moyilligida, vaziyatdan chiqa olmasdek his qilishlarida namoyon bo'ladi.


Apatiya mezoni bo'yicha eksperimental va nazorat guruhlarda olingan natijalar tahliliga ko'ra ($U=-5,6$; $p \leq 0,001$), bu shkalada eksperimental guruh natijalari yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Apatiya ruhiy tushkunlik holati bo'lib, u umumiy buzilish, davom etayotgan voqealarga va umuman hayotga qiziqishning pasayishi bilan tavsiflanadi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalaridagi bu

ko'rsatkichning yuqoriligi bu bolalarga qo'yilgan tashxis va shu tufayli yuzaga keladigan, har doim uzoq davom etadigan hissiy stressning natijasi ekanligi aniqlandi.

Navbatdagi mezon ichki xotirjamlik bo'lib ($U=12,01$; $p\leq 0,001$), bu eksperimental guruhni tashkil qiluvchi autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalarida nazorat guruhi onalariga nisbatan past ekanligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandi bor onalar ruhiy va jismoniy zo'riqishni boshdan kechirishlari aniqlanganligi bunga yaqqol isbot bo'la oladi. Bolaning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi shaxsiy ko'rinishlari va xatti-harakatlari onalarning umidlarini qondirmaydi va natijada ularda g'azab, jahldorlik va norozilikni keltirib chiqaradi. Onalar bolaning rivojlanishidagi kechikish jarayonini ijtimoiy muhitdan yashirishga harakat qilishadi.

Tadqiqot natijalarida ichki komfort mezoni bo'yicha ham ($U=12,9$; $p\leq 0,001$) eksperimental va nazorat guruhi orasida statistik ahamiyatli farqlar aniqlangan. Mazkur emosional holat ham autizm spektrida buzilishlari aniqlangan bolalarning onalarida past natijaga ega ekanligi aniqlangan. Bu holat ham onalarning autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarga munosabatida ruhiy tushkunlik, bola bilan o'zaro munosabatlarda chalkashlik yoki bola bilan munosabatni cheklash, o'z-o'ziga past baho bera boshlashi, bola uchun o'zini butunlay rad etishi, «yomon irsiyat» ning taxminiy roli bilan bog'liq bezovta qiluvchi qo'rquv ularda bu mezon past ekanligini isbotlaydi.

Ilmiy tadqiqotning navbatdagi bosqichida onalarning psixoemotsional holati, ichki xavotirlanish darajasini to'liqroq diagnostika qilish hamda ona shaxsning psixoemotsional portretini aniqroq tavsiflash maqsadida Ch.D.Spilberger va Y.L.Xaninning «Reaktiv (vaziyatli) va shaxsiy xavotirlik darajalarini» o'rganuvchi so'rovnomasidan foydalandik. Har ikki guruh vakillarida o'tkazilgan metodika natijalari 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Onada namoyon bo'luvchi xavotirlanish holatining ifodalanishidagi differensial farqlar, n=250

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, sog'lom bolalarning va autizm spektrida buzilish mavjud bola onalarining xavotirlanish darajalarida differensial farqlar mavjud. Vaziyatli ($U=-11,2$; $p\leq 0,001$) xavotirlanish autizm spektrida buzilish aniqlangan bola

onalarida yuqori natija ko'rsatgan bo'lib, uning sababi subyektiv ravishda farzandining holatiga bog'liq boshdan kechirilgan his-tuyg'ular bilan tavsiflanadi.

Shaxslararo munosabatlarda eksperimental guruhni tashkil qiluvchi onalarda natijalar yuqoriligi keskinlik, tashvish, asabiylashish holatlarining namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Xavotirlanish ko'rinishi stressli vaziyatga hissiy reaksiya sifatida yuzaga kelishi hamda vaqt o'tishi bilan intensivlik va dinamikasi bilan farq qilishi mumkin. Shaxsiy xavotirlanish ($U=-13,07$; $p\leq 0,001$) ma'lum stimullar shaxs tomonidan o'zini o'zi qadrlash uchun xavfli deb qabul qilinganda faollashadi. Shaxsiy xavotirlanish darajasini onalarda ortishi oilaviy munosabatlarda onalarda keskinlik, yashirin yoki aniq konflikt, autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandi bor er-xotinlar o'rtasida o'zaro ayblovlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotda ona shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlarini real xatti-harakatlariga moslik holatini aniqlash ushun Ch.Osgudning «Semantik differensial» metodikasidan foydalanildi, natijalar 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Onaning o'z «Men»i haqidagi semantik differensiasiyasi, n=250

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, sog'lom va autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning onalar o'z «Men»i haqidagi semantik tafovutlar mavjud.

Sog'lom va autizm spektrida buzilishlari bor bolalarning onalarini natijalarida «Men oiladaman» ($U=-4,4$; $p\leq 0,001$) mezonlari orasida ahamiyatli statistik farqlar aniqlangan. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalari turmush o'rtoqlari va oilaning boshqa vakillari tomonidan past baholanishi aniqlandi. Bunga asosiy sabab autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalar ko'pincha o'z muammolarida o'zlarini yopiq deb bilishadi, ular bola bilan qanday munosabatda bo'lish, o'qitish usullari va bolalarning xatti-harakatlarini tuzatish haqida zarur bilimga ega emasliklari aniqlandi.

«Do'stlarim davrasida men» ($U=-6,3$; $p\leq 0,001$) mezonlari orasida ham ahamiyatli statistik farqlar aniqlangan. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning onalarida mazkur ko'rsatkichlar past ekanligi aniqlangan. Boisi, ona o'z vaqtini do'stlari davrasida o'tkazishdan ko'ra oilasida o'tkazadi. Shu bilan bog'liq ravishda bu holat ona do'stlari davrasida o'zini komfort his qilmasligidan dalolat beradi. Bemor bolalarning onalari o'z vaqtlarini taqsimlaganlarida ko'proq «farzandni


bee'tibor qoldirmaslik» holati ustun turganligi bois, do'stlari davrasidagi «erkin ayol» obrazi mazkur onalarda biroz past darajada reprezentatsiyalanadi.

«Men bolam bilan birgaman» mezoni bo'yicha har ikki guruh vakillarida ham bir xil qiymat aniqlangan. Mazkur holat, har ikki guruh vakillari ona sifatida o'z farzandlariga yetarli darajada vaqt sarflashlari, o'z vazifalarini uddalashlari, bola bilan munosabatlarini me'yorda ekanligi haqidagi tasavvurlarini anglatadi.

Ona-bola munosabatlari shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Buning asosiy sabablaridan biri onaning bola bilan ko'proq vaqt o'tkazishidir. Bizning tadqiqot obyektimizni o'ziga xos jihati shundaki, autizm spektrida buzilishlari bor bolalar o'z vaqtining deyarli barchasini onasi bilan komfort his qiladi. Onaning o'z farzandiga bo'lgan munosabatidagi differensial farqlarining psixologik xususiyatlarini empirik aniqlash uchun A.Y.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-onalar munosabati test-so'rovnomasi» o'tkazildi, natijalar 4-rasmda berilgan.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turganidek, sog'lom bolalarning va autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalarining o'z farzandiga bo'lgan munosabatidagi differensial o'ziga xos farqlar mavjud.

Eksperimental guruhni tashkil qiluvchi autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalarining natijalari «Bolani emotsional qabul qilish» mezoni ($U=-8,9$; $p\leq 0,001$) nazorat guruhi onalariga nisbatan past ekanligi aniqlandi. Ushbu shkala bolaga emotsional jihatdan ijobiy (qabul qilish) yoki emotsional jihatdan salbiy (rad etish) munosabatini bildiradi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalarining natijalari sog'lom bola onalarining natijalariga nisbatan past ekanligiga asosiy sabab bolani o'zi kabi qabul qilmasliklari, uning individualligini hurmat qilmasliklari va tan olmasliklari, uning manfaatlarini ma'qullamasliklari, rejalarini qo'llab-quvvatlamasliklari, u bilan juda ko'p vaqt o'tkazsalar ham bundan afsuslanishlari aniqlandi.



4-rasm. Onaning o'z farzandiga bo'lgan munosabatidagi psixologik xususiyatlarning differensial farqlari, n=250

«Koopertasiya» mezoni ($U=-2,9$; $p\leq 0,05$), onalarning bola bilan hamkorlik qilish istagini, ularning samimiy qiziqishini va uning ishlarida ishtirok etishni ifodalaydi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar ijtimoiy muloqotda muammolarga duch kelishadi. Masalan, ular muloqotni davom ettira olmaydilar,

ijtimoiy yaqinlashuv muammolarini boshdan kechiradilar, qiziqish va his-tuyg'ularni baham ko'rish qobiliyatini kamaytiradilar. Bu toifa bolalarda yana, ko'z bilan ishora qilmaslik holati onalarda bolaning istaklari va rejaları bilan qiziqmasligiga, bolaga hamma narsada yordam berishga harakat qilmasligiga, unga hamdardlik bildirmasligiga ta'sir qilishi mumkinligi aniqlandi.

Simbioz shkalasi ($U=-2,8$; $p\leq 0,05$) orqali onaning bola bilan bo'ladigan muloqoti va shaxslararo oraliq masofasi aniqlanadi. Eksperiment guruhi sinaluvchi onalarining natijalari nazorat guruhi onalariga nisbatan yuqori ekanligi autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar bilan takrorlanuvchi yoki cheklangan xatti-harakatlarning ko'plab shakllarini namoyish etishlari bilan bog'liq. Autizmli bolalarning maqsadsiz harakatlari (stereotiplash), majburiy xulq-atvori, bir xillikka bo'lgan ehtiyoji, o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishlari, ritual xatti-harakatlari, cheklangan xulq-atvori natijalarining yuqoriligiga ta'sir ko'rsatadi. Bolalardagi bu holat onalarda o'zini bolasi bilan birdek his qilishida, bolaning hamma ehtiyojlarini qondirishida, uni hayot qiyinchiliklaridan himoya qilishga intilishida namoyon bo'ladi.

«Nazorat» mezoni ($U=-3,2$; $p\leq 0,01$), bo'yicha onalar bolaning xatti-harakatlarini nazorat qilish shakli va yo'nalishi aniqlanadi. Bu mezon bo'yicha ham autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalarining natijalari nazorat guruhini tashkil qiluvchi onalar natijalariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Eksperiment guruhini tashkil qiluvchi onalarda bola xatti-harakatlarini avtoritar tarzda boshqarishlari aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarda monologik nutq mavjudligi, dialog nutq esa shakllanmagan bo'lishi, asosan, onalardagi avtoritar nazoratni tashkil etishlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi.

«Infantilizatsiya» mezoni ($U=-5,8$; $p\leq 0,001$) orqali onalar bolaning qobiliyatlari, uning kuchli va zaif tomonlari, muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari bilan qanday bog'liqligi aniqlanadi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalarining yuz ifodalarini takrorlamasliklari, ularga javoban tabassum qilmasligi, kattalarning imo-ishoralarini takrorlamasliklari yoki ongli ravishda qilmasliklari va o'zlarining muammolari hamda fikrlarini onalari bilan bo'lishmasliklari, onalarning bolani biroz mag'lub deb bilishiga va unga haqiqiy yoshidan kichik bola sifatida munosabatda bo'lishiga ta'sir qilishi ushbu mezon orqali aniqlandi.

Tadqiqotda onaning bolaga munosabatini bola psixik taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish uchun A.Y.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-ona munosabati test-so'rovnomasi» dan olingan natijalarni Bernard Rimland va Stiven Edelsonning «ATEC» anketasi ko'rsatikichlari bilan korrelyatsion bog'liqligiga oid natijalar 1-jadvalda berilgan.

«Bolani emotsional qabul qilish» va «hissiy qobiliyatalar, idrok» shkalalari o'rtasida musbat aloqadorlik mavjudligini kuzatishimiz mumkin ($r=0,4$; $p\leq 0,01$). Natijalar tahliliga ko'ra, autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalari bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishi, uning individualligini tan olishi va hurmat qilishi, uning qiziqishlarini, rejalarini qo'llab-quvvatlashi, bola bilan ko'p vaqtni o'tkazishi va bu haqida afsus chekmasligi, bolalarning hissiy sohasi va bilish jarayonlari, ayniqsa, idrokni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi natijalardan aniqlandi.

**Onaning farzandiga munosabatini autizm spektrida buzilish aniqlangan
bola psixik taraqqiyotiga ta'siri, n=150**

Shkalalar	Nutq, til, muloqot ko'nikmalari	Ijtimoiylashuv	Hissiy qobiliyatlar, idrok	Salomatlik. Jismoniy rivojlanish
Bolani emotsional qabul qilish	0,2	-0,006	0,45**	0,1
Kooperatsiya	-0,1	0,02	-0,03	-0,24**
Simbioz	-0,03	0,02	-0,09	-0,05
Nazorat	-0,1	-0,15	0,08	0,15
Infantilizatsiya	0,04	0,08	0,16	0,03

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$; *** $p \leq 0,001$.

Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalarining boladagi turli ta'sirlarga gipersteziyaning (sezgirlikning) yuqoriligini: ya'ni harorat, taktil, ovoz va ranglarga, doimiy ranglar autizimli bolalar uchun haddan tashqari yoqimsiz ekanligi, atrof-olamdan keluvchi bu kabi ta'sirlar autizimli bolalar tomonidan jarohatlovchi omil sifatida idrok etilishi haqidagi bilimlarga ega ekanligi bolani emotsional jihatdan ijobiy qabul qilishlariga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarga ona salbiy munosabatda bo'lishi ularda haddan tashqari psixik ta'sirchanlikni shakllantiradi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola uchun atrof-muhit doimiy salbiy emotsional fon bo'ladi. Inson autizm spektrida buzilish aniqlangan bola tomonidan atrof-muhitning elementi sifatida idrok etilib, uning uchun juda kuchli ta'sir etuvchi hisoblanadi. Bu autizm spektrida buzilish aniqlangan bolaning umuman insonga, xususan yaqinlariga bo'lgan reaksiyasining kuchsizlanishini izohlaydi. Shuning uchun bolaning ota-onasi, birinchi navbatda onasi ko'pincha hissiy, emotsional donor sifatida e'tiborga olinadi.

Navbatdagi «Kooperatsiya» va «Salomatlik. Jismoniy rivojlanish» mezonlari o'rtasida manfiy ($r = -0,24; p \leq 0,01$) aloqadorlik aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarda antropometrik ko'rsatkichlarda sog'lom bolalarga nisbatan bir muncha orqada qolishlar kuzatiladi. Bu toifa bolalarda orqada qolish harakatlarida bir xillik, uyqu buzilishlari, tajovuzkorlikka moyillik va qo'rquv ko'rinishida aks etadi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalarida «Kooperatsiya» mezonini bo'yicha past natijalar aniqlanganligi bolalar salomatligida, jismoniy rivojlanishida bir qator muammolarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatadi deb baholash mumkin. Bu ko'p hollarda onalar bola bilan muomala qilishda tashabbus ko'rsatmasligi, onalarning passivligi, o'z sa'y-harakatlarini bolaning kuchli tomonlari, qobiliyatlari va rivojlanishini aniqlashga qaratmasliklari bilan belgilanadi.

Tadqiqot maqsad va faraziga asosan, autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalarining psixoemotsional holatini baholash uchun mo'ljallangan E.B.Fantalovanning «7 holat» metodikasi, Ch.D.Spilberger va Y.L.Xaninning «Reaktiv (vaziyatli) va shaxsiy xavotirlik darajalarini» aniqlash metodikasi hamda autizmni

davolash samaradorligini baholash uchun mo'ljallangan «ATEC» anketasi mezonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinganda, bir qator ishonch darajasidagi bog'liqlik qonuniyatlari mavjudligi 2-jadvalda keltirilgan.

«Vaziyatli xavotirlanish» va «Nutq, til, muloqot ko'nikmalari» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,28$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Demak, autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalari bolasi bilan bog'liq barcha vaziyat-hoлатlarning aksariyat qismini tahdid soluvchi sifatida qabul qilishi, bunday vaziyatlarda xavotir holati bilan munosabat bildirishi bola nutq va muloqot qobiliyatlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

«Vaziyatli xavotirlanish» va «Hissiy qobiliyatlar, idrok» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,42$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarda negativizm yuzaga kelganda ya'ni kattalarning ko'rsatmalarini tinglashdan bosh tortishi, u bilan birgalikda faoliyatni amalga oshirmoqchi bo'lganlarni tark etishida onalarda umumiy qo'zg'aluvchanlikning oshishi kuzatiladi va bolani majburan o'sha faoliyatga jalb qilishi natijasida biror faoliyatni bola o'zi bajara olishiga erishish mumkin. Bolalarda qarshilik, qichqiriq, tajovuzkor portlashlar yuzaga kelganda onada jismoniy darajada yurak urish tezligining oshishi, nafas olishning kuchayishi, qon bosimining oshishi kabi vaziyatli xavotirlanish belgilari yuzaga keladi.

2-jadval

Onaning psixoemotsional holatini autizm spektrida buzilish aniqlangan bola psixik taraqqiyotiga ta'siri (n=150)

Shkalalar	Nutq, til, muloqot ko'nikmalari	Ijtimoiylashuv	Hissiy qobiliyatlar, idrok	Salomatlik
Vaziyatli xavotirlanish	0,28**	0,09	0,42**	0,08
Shaxsiy xavotirlanish	0,23**	0,07	0,34**	0,19*
Ichki konflikt	0,10	0,22**	0,11	0,24**
Ichki vakuum	0,06	0,25**	-0,01	0,31**
Ichki tashvish	- 0,12	0,06	-0,14	0,21**
G'am, anduh tushkunlik	-0,02	0,24**	-0,26**	0,32**
Apatiya	0,05	0,06	0,13	-0,05
Ichki xotirjamlik	0,03	-0,03	0,07	-0,15
Ichki komfort	0,23**	-0,02	0,28**	-0,22**

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$; *** $p\leq 0,001$.

«Shaxsiy xavotirlanish» va «Nutq, til, muloqot ko'nikmalari» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,23$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Demak, autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi shaxsiy xavotirlanishni ortishi, bolalardagi nutq, til, muloqot ko'nikmalarini ortishiga ta'sir qiladi. Shaxsiy xavotirlanish darajasi yuqori bo'lgan onalarda doimiy stress yuzaga keladi. Ayniqsa,

mutaxassislar tomonidan farzandining holati to'g'risida bergan ma'lumotlari stress yuzaga kelishiga asosiy ta'sir ko'rstuvchi omil hisoblanadi.

«Shaxsiy xavotirlanish» va «Hissiy qobiliyatlar, idrok» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,34$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Demak, autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi shaxsiy xavotirlanishni ortishi, bolalardagi hissiyotni va idrokni ortishiga ta'sir qilishi aniqlandi. Bunda onaning o'z imkoniyatlari, o'ziga beradigan bahosi bilan bog'liq xavotirlanish darajasining ortishi bola emotsional sohasiga ta'sir etmay qolmaydi. Onaning ichki xavotirlanishi bolada hissiyotlarni differentsiatsiyalashdagi muammolarni hamda ijtimoiy persepsiyani shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Bunday holatlarda bolalar o'zgalarning holatini o'zlariga identifikatsiyalab, yanada shaxslararo munosabatlardan o'zlari tortadilar.

«Shaxsiy xavotirlanish» va «Salomatlik» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,19$; $p\leq 0,05$) borligi aniqlandi. Demak, autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi shaxsiy xavotirlanishni ortishi, bolalarning jismoniy rivojlanishi va salomatligiga ta'siri aniqlandi. Onaning subyektiv og'riqli xavotirlari bolani jismoniy harakatlarini cheklashga olib kelishi, bu esa bolada shaxsiy o'sish bilan bog'liq holatlarni tormozlashi mumkin. Ona subyektiv ichki xavotir, aybdorlik hissi ta'sirida bola parvarishini ham to'g'ri amalga oshira olmay qoladi.

«Ichki konflikt» va «Ijtimoiylashuv» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,22$; $p\leq 0,001$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi ichki zo'riqish hissi, o'zi bilan kelishmovchilik bolalarni ijtimoiylashuvini ortishiga ta'siri aniqlandi. Onalardagi ichki zo'riqish hissi autizm spektrida buzilish anqilangan bolalarni muloqotdan uzoqlashish istagini pasaytirishga harakat qilinganda, yaqin odamlar bilan aloqalarni tashkil etishda, boshqa bolalar bilan o'yin faoliyatini tashkil etishda, atrofdagi dunyoga faol, jiddiy qiziqishni shakllantirishda, bolani maishiy va ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarda ko'maklashishda yuzaga keladi. Bu kabi psixosotsial holat onalarda nevrozlar, psixosomatik salbiy holatlarni yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

«Ichki konflikt» va «Salomatlik» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,24$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Demak, autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi ichki zo'riqish hissi, o'zi bilan kelishmovchilik bolalarning jismoniy rivojlanishi va salomatligi yaxshilanishiga ta'siri aniqlandi. Autizm spektrida buzilish anqillangan bolalar onalarida ichki bezovtalanish hissini yuzaga kelishiga yana bir qancha, bolalar ovqatlanishini tashkil etish bilan bog'liq muammolar ham ta'sir etishi kuzatilgan.

«Ichki vakuum» va «Ijtimoiylashuv» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,25$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi ichki bo'shliqni his qilishi hech narsaga qiziqishi yo'qligi bolalarni ijtimoiylashuviga ta'siri aniqlandi. Autizm spektrida buzilishlari bor bolalarning ijtimoiy integratsiyasi ona shaxsi orqali amalga oshadi. Agar onadagi hayotiy ekzistensiyalar pozitiv bo'ladigan bo'lsa, bolaning ijtimoiylashuvdagi o'zgarishlar kuzatilishi mumkin, onadagi «hayot mazmun»ni yo'qotib qo'yganlik holati bolani jamiyatga integratsiyasiga salbiy ta'sir etadi.

«Ichki vakuum» va «Salomatlik» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,31$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalaridagi ichki bo'shliqni his qilishi, hech narsaga qiziqishi yo'qligi bolalarni jismoniy rivojlanishi va salomatligi yaxshilanishiga ta'siri aniqlandi. Ona o'zini «hayot mazmuni»ni yo'qotgandek his qilgani bilan bolaning jismoniy rivojlanishi uchun borini sarflaydi. Ona o'zining shaxsiy konstruktларini bola bilan identifikatsiyalaydi va bola parvarishi uchun o'zini safarbar etib boradi.

«Ichki tashvish» va «Salomatlik» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,21$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, onadagi salbiy emotsional holat bola bilan bog'liq «ijtimoiy kutuvlari», «o'zini ayblash», «o'zidan qoniqmaslik» bilan bog'liq ichki tashvishlanish, subyektiv xavotirlanish hissini bolani parvarishlashga urinish orqali niqoblashga urinadi. Ona o'z farzandini jismoniy parvarishiga e'tibor qaratish orqali «ona-bola» munosabatlaridagi bo'shliqlarni kompensatsiyalashga urinadi.

«G'am, anduh, tushkunlik» va «Ijtimoiylashuv» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,24$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi g'am, anduh, tushkunlik bolalarni ijtimoiylashuvini ortishiga ta'siri aniqlandi. Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin: onadagi emotsionallik, depressivlik bilan bog'liq holatlarni autizm spektrida buzilishlari aniqlangan bolalarning jamiyatga integratsiyasida «kompensatorlik» psixologik mexanizmi katta ahamiyatga ega. Chunki, ona o'zini negativ holatini «bola parvarishi» orqali bostirishga harakat qiladi. Natijada bolaning ijtimoiylashuviga o'z ichki energiyasini sarflaydi va o'zida doimiy bezovtalik, xavotirlanish, bola uchun g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi.

«G'am, anduh, tushkunlik» va «Hissiy qobiliyatlar, idrok» mezonlari o'rtasida manfiy aloqadorlik ($r=-0,26$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi g'am, anduh, tushkunlik, bolalar hissiyotida yoqimsiz kechinmalar ortishiga va salbiy attraksiya vujudga kelishiga ta'siri aniqlandi. Qolaversa, autizm spektrida buzilishlari bor bolalar onaning psixoemotsional holatiga nisbatan ta'sirchan bo'ladi. Bola o'z onasidagi hissiy o'zgarishlarga darhol reaksiya bildiradi. Onasi bilan ma'nan-ruhan bog'liq bo'lgan autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning hissiy reaksiyalari anglanmagan holda onasining emotsiyalariga identiv bo'ladi.

«G'am, anduh, tushkunlik» va «Salomatlik» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,32$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Mazkur holat ona shaxsidagi depressiv holat, farzandiga munosabat bilan bog'liq emotsiyalar (mehr, aybdorlik hissi, xavotirlanish) uni o'z zurriyotiga nisbatan g'amxo'rlik qilishni kuchayishiga olib kelishidan dalolat beradi. Bunda ona farzandini salomatligi bilan bog'liq o'zidagi tushkunlik holatini bola jismoniy taraqqiyoti uchun sharoit yaratib berishga intilish orqali bartaraf etishga urinadi.

«Ichki komfort» va «Nutq, til, muloqot ko'nikmalari» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,23$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi ichki xotirjamlik, xavfsizlik hissi bolalardagi nutq, til, muloqot ko'nikmalarini ortishiga ta'sir qiladi. Darhaqiqat, ona o'zini holati va

farzandini boricha qabul qila olsa, ichki uyg'unlikni, psixoemotsional farovonlikni tuyadi. Natijada farzandi bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnatishga, bola taraqqiyot darajasiga mos muloqot usullarini qo'llashga harakat qiladi. Yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek, autizm spektrida buzilishlari bor bolalar onalarining holatiga nisbatan o'ta ta'sirchan bo'ladilar. Shunday ekan, onadagi ichki komfort, emotsional turg'unlik bolada ham o'z aksini topadi. Natijada boladagi nutq, muloqot ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Chunki, ona farzandini boricha qabul qilgach, u bilan «sog'lom muloqot»ni yo'lga qo'yadi va bolada nutqni rivojlanishiga intensiv ta'sir etadi.

«Ichki komfort» va «Hissiy qobiliyatlar, idrok» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,28$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalaridagi ichki xotirjamlik, xavfsizlik hissi bolalardagi bolalar hissiyotida yoqimli kechinmalar ortishiga va bola sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa hodisalarni bola ongida bir butun holda aks etishi ya'ni idrok qilishiga ta'sir qilishi kuzatildi.

«Ichki komfort» va «Salomatlik» mezonlari o'rtasida manfiy aloqadorlik ($r=-0,21$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalaridagi ichki xotirjamlik, xavfsizlik hissi bolalardagi jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshishiga, ularning o'sish jarayonida o'zgarish tezligi ortishiga, kalendar va biologik yoshning nisbati uyg'unlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Ilmiy tadqiqotimizni keyingi bosqichida onaning o'zi haqidagi tasavvurlari va autizm spektrida buzilish aniqlangan bola psixik taraqqiyoti natijalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik korrelyatsiyasini tahlil qilishga harakat qildik. Tadqiqotda qayta ishlangan tahlil natijalariga ko'ra onaning o'zi haqidagi tasavvurlarini autizm spektrida buzilish aniqlangan bola psixik taraqqiyotiga ta'siri ko'rsatkichlarining o'zaro korrelyatsion aloqadorligi orasida bir qator ishonch darajasidagi bog'liqlik qonuniyatlari mavjudligi ko'rindi, tadqiqot natijalari 3-jadvalda berilgan.

3-jadval

Onaning o'zi haqidagi tasavvurlarini autizm spektrida buzilish aniqlangan bola psixik taraqqiyotiga ta'siri, n=150

Shkalalar	Nutq, til, muloqot ko'nikmalari	Ijtimoiylashuv	Hissiy qobiliyatlar, idrok	Salomatlik
Men oiladaman	-0,14	-0,07	-0,05	-0,09
Do'stlarim davrasida men	0,07	0,11	-0,01	-0,18*
Men bolam bilan birgaman	0,22**	-0,06	-0,13	-0,05

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$; *** $p\leq 0,001$.

3-jadvaldan ko'rinadiki, «Do'stlarim davrasida men» mezoni va «Salomatlik» mezonlari o'rtasida nisbatan past manfiy aloqadorlik ($r=-0,18$; $p\leq 0,05$) borligi

aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalari, do'stlari davrasida o'zini komfort his qilmasligi, ular bilan shaxslararo munosabatga kirishganda farzandi holatidan uyalishi bola salomatligi va jismoniy rivojlanishida bir qator muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi tahlil natijalaridan aniqlandi. Umuman olganda, autizm spektrida buzilishlari aniqlangan bolalarning onalari do'stlari davrasidan «o'zlarini olib qochish»ga urinadilar va do'stlari uchun sarflaydigan vaqtni bolasiga sarflashni ma'qul ko'radilar.

«Men bolam bilan birgaman» mezoni va «Nutq, til, muloqot ko'nikmalari» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,22$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalari faqat o'zlarini bola jismoniy va ruhiy rivojlanishida mas'ul deb hisoblashlari, bolalar muloqot doirasining va nutq ko'nikmalari shakllanishining o'ziga xos jihatlari kuzatildi. Mazkur onalarda ko'pincha bolaga nisbatan simbiotik munosabat ustun bo'lganligi bois, ular farzand bilan o'zlarini yaxlit obrazda qabul qiladilar. Natijada farzandiga ko'p vaqt sarflashadi, ular bilan ko'proq muloqotda bo'lishga urinadilar. Bu esa bolada nutq va muloqot ko'nikmalarini ijtimoiy muhitda shakllanishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandi bor onalarga psixokorreksion yordam ko'rsatishning amaliy imkoniyatlari**» deb nomlanib, unda autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandi bor onalarga ko'rsatiladigan psixologik yordam mazmuni, ular bilan psixokorreksion ish olib borish modeli, psixokorreksion yordam ko'rsatish samaradorligining psixologik jihatlari asoslangan bo'lib, olingan natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Ona shaxsidagi psixoemotsional o'zgarishlarning o'ziga xos jihatlari, n=50

Psixoemotsional o'zgarishlar	O'rtacha qiymat		T – statistik farq ko'rsatkichi
	AT	NT	
Ichki konflikt	15,0	11,5	-4,2***
Ichki vakum	8,0	6,5	-3,2**
Ichki tashvish	8,0	3,0	-0,3**
G'am, anduh, tushkunlik	7,0	4,5	-2,6**
Apatiya	5,0	1,5	-3,6***
Ichki xotirjamlik	3,5	15,4	-4,7***
Ichki komfort	11,0	18,5	-5,3***
Reaktiv xavotirlanish	12,0	6,5	-5,7**
Shaxsiy xavotirlanish	12,0	4,0	-5,7***
Men oiladaman	7,0	11,0	-4,2***
Men do'stlarim davrasida	6,0	11,0	-4,5***
Men autizm sindromli bolam bilan birgaman	1,0	3,0	-2,2**

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$; *** $p\leq 0,001$; * At-aniqlashtiruvchi tajriba, Nt-nazorat tajriba;


4-jadvalda berilgan tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, tashkil etilgan psixokorreksion dastur onalarning psixoemotsional o'zgarishlari

transformatsiyalanishiga ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, «Ichki konflikt» ($t=-4,21$; $p\leq 0,001$), «Ichki vakuum» ($t=-3,15$; $p\leq 0,01$), «Ichki tashvish» ($t=-4,21$; $p\leq 0,001$), «G'am, anduh tushkunlik» ($t=-3,15$; $p\leq 0,01$), «Apatiya» ($t=-4,21$; $p\leq 0,001$), «Ichki xotirjamlik» ($t=-4,21$; $p\leq 0,001$), «Ichki komfort» ($t=-4,21$; $p\leq 0,001$) holatlar bo'yicha ijobiy o'zgarishlar aniqlandi. Mazkur holat autizm spektrida buzilishlari aniqlangan bolalarning onalarida emotsional barqarorlikni ortganligidan dalolat beradi va onalarning xavotirlanish darajalari o'rtasida ahamiyatli statistik farqlar aniqlanganligini tasdiqlaydi.

«Reaktiv (vaziyatli) va shaxsiy xavotirlik darajalarini» o'rganuvchi (Ch.D.Spilberger va Y.L.Xanin) so'rovnomasidan olingan natijalarga ko'ra reaktiv xavotirlanish mezonini bo'yicha ($t=-5,7$; $p\leq 0,001$) va shaxsiy hovotirlanish mezonini bo'yicha ($t=-5,7$; $p\leq 0,001$) ijobiy farqlar mavjud ekanligi aniqlandi. Onadagi psixoemotsional holatni barqarorlashuvida «onani o'zini qabul qilish» darajasi katta ahamiyatga ega. Shu boisdan, refleksiyaning rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni samaradorligi aniqlash uchun Ch.Osgudning «Semantik differensial» metodikasi ham qayta o'tkazildi. Natijalar 4-jadvalda aks etgan. Jadvalda «Men oiladaman» ($t=-4,2$; $p\leq 0,001$), «Do'stlarim davrasida men» ($t=-4,5$; $p\leq 0,001$), «Men autizm sindromli bolam bilan birgaman» mezonini bo'yicha ham ($t=-2,2$; $p\leq 0,01$) ijobiy farq mavjudligi aniqlandi. Mazkur holat onalarni o'zini qabul qilish darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini anglatadi.

«Vaziyatli xavotirlanish» va «Nutq, til, muloqot ko'nikmalari» mezonlari o'rtasida musbat aloqadorlik ($r=0,28$; $p\leq 0,01$) borligi aniqlandi. Demak, autizm spektrida buzilish aniqlangan bola onalari bolasi bilan bog'liq barcha vaziyat-hoatlarning aksariyat qismini tahdid soluvchi sifatida qabul qilishi, bunday vaziyatlarda xavotir holati bilan munosabat bildirishi bola nutq va muloqot qobiliyatlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida onaning emotsional sohasidagi o'zgarishlar bolaga munosabatini qanchalik ijobiy tomonga transformatsiyalanishiga olib kelganlik darajasi aniqlandi. Buning uchun A.Y.Varga va V.V.Stolinning «Ota-onalarning bolaga munosabati test-so'rovnomasi» qayta o'tkazib olindi. Natijalar 5-rasmda aks ettirilgan.




5-rasm. Ota-onalarning bolaga munosabati bo'yicha test-so'rovnomasi natijalari

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, «Bolani qabul qilish» ($t=-5,5$; $p\leq 0,001$), «Kooperatsiya» ($t=-3,1$; $p\leq 0,01$) darajasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan.

Qolgan mezonlar orasida ahamiyatli o‘zgarishlar aniqlanmagan. Mazkur holat autizm spektrli buzilishlari bor bolalarning onalari o‘z farzandlarining emotsional qabul qilishlari darajasi ortganligini, shu bilan bir qatorda o‘z farzandiga nisbatan hamkorlikdagi pozitsiyaning kuchayganligini anglatadi.

Nazorat tajribasi natijalaridan ko‘rinib turibdiki, «Nutq, til muloqot ko‘nikmalari» ($t=-5,5$; $p\leq 0,001$), «Ijtimoiylashuv» ($t=-5,3$; $p\leq 0,001$), «Hissiy qobiliyatlar/idrok» ($t=-4,8$; $p\leq 0,001$), «Umumiy ko‘rsatkich» ($t=-5,5$; $p\leq 0,001$) natijalarga asoslangan holda ahamiyatli farqlar aniqlandi. Olingan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ona shaxsidagi emotsional o‘zgarishlar bolaning muloqot ko‘nikmalarini shakllanishiga ta’sir etib, uning ijtimoiylashuviga, hissiy sohasini rivojlanishiga intensiv ta’sir etishi aniqlangan. Natijalar 6-rasmda aks ettirilgan.



6-rasm. Ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola taraqqiyotiga ta’siri

Demak, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ona shaxsining emotsional sohasi, o‘zini va farzandini qabul qilish darajasidagi ijobiy o‘zgarishlar autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning psixik taraqqiyotiga ham o‘zining ahamiyatli ta’sirini ko‘rsatar ekan.

Ilmiy tadqiqotda autizm spektrida buzilishlari aniqlangan bolalarning onalariga xos bo‘lgan psixoemotsional tipologiyasi yaratildi, mazkur tipologiya 5- jadvalda aks ettirilgan.

«Sog‘lom onalar maktabi» psixokorreksion dasturning maqsadi psixologik yordam o‘z vaqtida tashkil qilish, autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalarining axloqiy qarashlarini rivojlantirish, profilaktik ishlarni qo‘llash orqali autizm spektrida buzilish aniqlangan bolani oilaga va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlashga erishish mumkin.

Mazkur dastur eksperimental guruhda qatnashgan, 50 nafar ota-ona uchun 7 ta mashg‘ulotdan iborat bo‘lib, onalar tomonidan bolani qabul qilishi va emotsional

zo‘riqlashlarini kamaytirish maqsad etib olindi, 2 oy davomida 2,5 soatdan olib borish mo‘ljallandi.

Mashg‘ulotlar davomida respondentlarning o‘z hissiy kechinmalari erkin va to‘liq, obyektiv tarzda namoyon qilishlariga erishish uchun «Sog‘lom onalar maktabi» nomli maxsus psixoterapevtik dastur tuzildi, dastur mexanizmi 7-rasmda o‘z ifodasini topgan.

5-jadval

**“Onalarning emotsional tipologiyasidagi o‘ziga xos jihatlari tasnifi”
(mualliflik ishlanmasi)**


Mezonlar	Autizm spektrida buzilishlari bor bolalarning onalari	Sog‘lom bolalarning onalari
Tashqi ta’sirlarga nisbatan barqarorlik	Bola bilan munosabatlarida «ichki vakuum» dan qutilish bilan bog‘liq ichki hissiy noturg‘unlik, bezovtalikning yuqoriligi	Hissiy barqaror, sog‘lom qaysarik, o‘zini-o‘zi nazorat qilish
Kelajakni prognozlash	Vaziyatli va shaxsiy xavotirlanishning kuchliligi	Optimizm, emotsional bahoning adekvatligi
Ijtimoiy intiutsiya	Shaxslararo munosabatlarda o‘zgalarning noverbal reaksiyalarini tushunish, empatiya	Emotsional intellektning darajaviy ifodasi
O‘z-o‘zini anglash	O‘zi haqidagi tasavvurlarida «oilada men» bilan bog‘liq empatiyaviy kechinmalarning yuqoriligi, o‘ziga emotsional munosabatning dominantligi, ichki konfliktlarni anglash	O‘ziga adekvat baho berish, o‘zining «ona» obraziga ijtimoiy rakursdan baho bera olish
Vaziyatga nisbatan ta’sirchanlik	Ijtimoiy ta’sirchan, verbal va noverbal ekspressiyalarga nisbatan beriluvchan, affiliatsiya motivi bola bilan munosabatga yo‘nalgan	Ijtimoiy ta’sirchan, affiliatsiya motivi ijtimoiy muhitdagi bola, yaqin insonlar, jamoaga yo‘nalgan, ichki komfort
E’tiborlilik	Ona-bola munosabatlarini konstruktivlashtirishga nisbatan e’tiborning kuchliligi	Ona-bola munosabatlarini konstruktivlashtirishga nisbatan e’tiborning kuchliligi

7-8-rasmlarda «Sog‘lom onalar maktabi» nomli psixokorreksion dastur modeli aks etgan bo‘lib, autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar va onalar

munosabatlariga psixokorreksion ta'sir ko'rsatish orqali onalardagi xavotirlanishni kamaytirish, bolasining kelajagiga ishonmaslik, bolani autizm bo'lib tug'ilishida o'zini va o'zgalarni ayblash, munosabatlardagi salbiylik, bolani qabul qilishdagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi.



7-rasm. Psixokorreksion dastur mexanizmi



8-rasm. «Sog'lom onalar maktabi» nomli dasturning psixokorreksion modeli

Dastur samaradorligini aniqlashda dastlabki aniqlashtiruvchi so'rovnomalarni, metodikalarni qayta o'tkazish maqsad qilindi. Jumladan, E.B.Fantalovanning «7 holat», A.Y.Varga, V.V.Stolinning «Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabati test-

so‘rovnomasi», Ch.D. Spilberger va Y.L. Xaninning «Reaktiv (vaziyatli) va shaxsiy xavotirlik darajalari tashxisi» so‘rovnomasi, Ch.Osgudning «Semantik differensial» metodikalari va «ATEK metodikasi» qayta o‘tkazildi. 8-rasmda psixokorreksion dasturning yo‘nalishlari ifodalangan.

Ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda «Sog‘lom onalar maktabi» dasturi tizimlilik, yaxlitlik, integrativlik, uzviylik va bir-birini to‘ldiruvchi tamoyillarga asosan tuzilganligi sababli, unga mos psixologik yordam tizimini aks ettiruvchi psixokorreksion model ishlab chiqildi. Ushbu modelda autizm spektrida buzilish anqilangan bola va ona munosabatlarini ijobiy shakllantirish orqali bolaning jamiyatga integratsiyasi ta‘minlanadi.

XULOSA

«Ona shaxsining autizm spektrida buzilish aniqlangan bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta‘siri»ni o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. Bolalar autizmi shaxs psixikasining barcha, jumladan, intellektual, emotsional, sensor, harakat, diqqat, tafakkur, xotira, nutq sohalaridagi buzilishlar bilan kechadigan psixopatologik holat hisoblanadi va autizm spektrli buzilishlar aniqlangan bolalarda «psixik buzilish triadasi» dominantlik qilib, bu ijtimoiy adaptatsiya, kommunikativ sohadagi ruhiy buzilishlar va xulq-atvorning stereotiplashganligida kuzatildi;

2. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning ruhiy rivojlanishi shaxsdagi «ichki konflikt», «ichki vakuum», «ichki tashvish», «tushkunlik», «apatiya»ning boladagi ijtimoiylashuv, hissiy qobiliyatlarni idrok qilish hamda muloqot ko‘nikmasini shakllanishiga integral ta‘siri tufayli onadagi psixoemosional holatlarni ifodalanishiga bog‘liq ekanligi dalillandi;

3. Shaxsda namoyon bo‘luvchi psixemosional holatlar differensiatsiyasiga ko‘ra bolaning ijtimoiy integratsiyasi, jismoniy salomatligidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z hissiy prizmasi asosida idrok etishi tufayli autizm spektrli buzilishlari aniqlangan farzandlarning onalarida «vaziyatli» va «shaxsiy» xavotirlanishning o‘zaro integral namoyon bo‘lishi isbotlandi;

4. Autizm spektrida buzilish bor bolalarning onalarini o‘zlari haqidagi semantik tasavvurlari «sog‘lom bola tarbiyalash istagi»ning reallikka nomutanosibligi bois hayotiy qadriyatlardagi «erkin ayol obrazi», «farzandni bee’tibor qoldirmaslik» holatiga ustuvorlik berish orqali transformatsiyalanishi tufayli «men oilamda» va «men bolam bilan birga» rakursida differensial farqlandi;

5. Onaning autizm spektrida buzilish bor shaxsning psixik taraqqiyotiga ta‘siri natijasida ayolning «hissiy donor» sifatida bola holatidagi o‘zgarishlarga nisbatan sezgirliги hamda uning kechinmalarni idrok qilish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlanishiga sabab bo‘lishi tufayli farzandga nisbatan «emosional qabul qilish», «kooperatsiya» munosabatining ustuvor xarakterga ega ekanligi dalillandi.

6. Ona shaxsining psixoemotsional sohasiga korreksion adaptiv ta‘sir etish orqali autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning ijtimoiy taraqqiyotiga erishish mumkinligi isbotlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

Maxsus psixologiya va differensial psixologiya sohasida faoliyat olib borayotgan **mutaxassislar uchun tavsiyalar:**

1. «Sogʻlom onalar maktabi» nomli psixokorreksion dasturni maxsus psixologlar faoliyatiga tatbiq qilish maqsadga muvofiq.

2. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi inklyuziv taʼlim markazida «Sogʻlom onalar» klubini tashkil etish zarur.

3. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar uchun Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining «Axborot-konsalting xizmati» boʻlimida tashkil etiladigan maxsus tibbiy-pedagogik-psixologik korreksion ishlar muddati ikki haftadan uzaytirilishi maqsadlidir.

Onalar uchun tavsiyalar:

4. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalari emotsional komfortga erishishi uchun oila, doʻstlar va farzandlari bilan munosabatlarini barqarorlashtirishlari kerak;

5. «Ona -bola» affektiv-instinktiv diadasidagi «onalik» prinsipiga muvofiq bola psixik taraqqiyoti uchun oʻz psixoemotsional holatini autorelaksatsion mashqlar orqali barqarorlashtirib borishi lozim;

6. «Men autizm spektrida buzilish aniqlangan farzandim bilan» bogʻliq kognitiv dissonanslarini bartaraf etish uchun doimiy oʻz ustida ishlashi zarur, bola bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish koʻnikmasini rivojlantirib borishi kerak;

7. Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalar onalarida oʻzini emotsional qabul qilish orqali ona-bola munosabatlarini barqarorlashtirish va konstruktiv-simbioz muloqot koʻnikmasini shakllantirish zarur.

Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning taraqqiyoti koʻp jihatdan onalarga bogʻliq. Shu boisdan ona shaxsi va undagi oʻzgarishlar albatta bola taraqqiyotiga taʼsir etadi. Bizningcha, kelgusi ishlarda onaning motivatsion sohasi, ota siymosining bola ijtimoiylashuviga, oiladagi sibling munosabatlarining autik bola psixik taraqqiyotiga taʼsiri masalalarini alohida tadqiqotlar predmeti sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2021.Р.26.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ НИЗАМИ**

АСРАРХАНОВА ЭЪТИБОР АБДУВАХОБ КИЗИ

**ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ЛИЧНОСТИ МАТЕРИ НА
ПСИХИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕБЁНКА С ДИАГНОЗОМ
РАССТРОЙСТВА АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА**

19.00.06 – Возрастная и педагогическая психология. Психология развития

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве науки, образования и инноваций за № B2023.2.PhD/P624.

Докторская диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете им. Низами.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме) на веб-странице Научного совета (psi-ik.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Атабаева Наргис Батыровна

доктор психологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Абдурасулов Рустам Абдураимович

доктор психологических наук, профессор

Джуманиязова Насиба Раматиллаевна

доктор философии по психологическим наукам
(PhD)

Ведущая организация: Ташкентский

государственный университет востоковедения

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2021. при Ташкентском государственном педагогическом университете. Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32). факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрировано за № ____). (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27. Тел.: (+99871) 276-82-32).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.

(Протокол реестра за № ____ от «___» _____ 2024 года.

Ф.А.Акрамова

Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней
доктор психологических наук, профессор

О.Э. Хайитов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней, доктор
психологических наук, профессор

З.Т.Нишанова

Председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор психологических наук, профес

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире становится всё более актуальной проблема изучения психического и физического развития детей с диагнозом расстройства аутистического спектра и их интеграции в семейную атмосферу, психоэмоционального состояния родителей больных детей, психических особенностей матерей детей с аутизмом. По статистике Всемирной организации здравоохранения в мире ежегодно увеличивается на 11-17% показатель болезни – синдрома аутизма. Если в 90-х годах прошлого века ежегодно аутизм диагностировали у одного ребёнка из каждых 5000 семей, а сейчас этот показатель соответствует каждому 50 детям³. Из этих показателей видно, что вопросы исследования научно-методических основ оказания социальной, медицинской, педагогической и психологической поддержки детям с изучения психологического влияния личности матери на психическое развитие ребёнка с диагнозом расстройства аутистического спектра, разработать практические рекомендации, стабилизирующие психоэмоциональное состояние их семьям, остаются одной из актуальных проблем.

Мировые образовательные учреждения и научно-практические исследовательские центры проводят исследования психологического влияния личности матери на психическое развитие ребёнка с диагнозом расстройство аутистического спектра. В связи с этим необходимо определить возникновение у детей расстройств аутистического спектра, оказать специальную медико-психологическую помощь, развивать их познавательную сферу, обеспечить их эмоциональную устойчивость, восстановить поведенческие нарушения, а также оказать психологическую поддержку родителям, оказавшимся в затруднениях, связанных с этой проблемой.

В Новом Узбекистане созданы необходимые нормативно-правовые основы для формирования системы психологической помощи детям и их семьям, нуждающимся в социальной защите и социальной реабилитации: за последние годы в нашей республике создана необходимая нормативно-правовая база для формирования системы психологической службы детям и их семьям, нуждающимся в социальной защите и социальной реабилитации. В качестве приоритетной задачи определено «Дальнейшее совершенствование системы государственной социальной поддержки семей, воспитывающих детей, нуждающихся в постоянном уходе, внедрение новых подходов к реализации современных механизмов социальной помощи»⁴, внедрению новых подходов в реализации современных механизмов. Это создает прочную основу для проведения научных исследований психологического влияния личности матери на психическое развитие ребёнка с диагнозом расстройства аутистического спектра.

³[https://psychlib.ru/mgppu/studworks/BrazhenkovaDM_2014/BOr-ma-013.htm#\\$p1](https://psychlib.ru/mgppu/studworks/BrazhenkovaDM_2014/BOr-ma-013.htm#$p1)

⁴Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по поддержке лиц с инвалидностью и категорий населения, нуждающихся в социальной защите»/ <https://lex.uz/ru/docs/5865484>

Данное диссертационное исследование в определённой степени послужит реализации масштабных стратегических мероприятий, обозначенных в Законе от 1 мая 2023 года ORQ-837 «О Конституции Республики Узбекистан», в Законе № ORQ-641 от 15 октября 2020 г. «О правах инвалидов», УП-60 от 28 января 2022 года Президента Республики Узбекистан «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», PQ-4860, октябрь 2020 г. № 13 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования детей с особыми образовательными потребностями», ПК-74 от 27 февраля 2023 года «О совершенствовании системы поддержки лиц с ограниченными возможностями здоровья», «О дополнительных мерах» от 19 июня 2023 года № ПК-196 «О мерах по дальнейшему развитию психиатрической службы населения», а также других нормативно-правовых документах по теме диссертационного исследования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии цифрового общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Среди психологов нашей республики Д.А.Абдуллаева, Ф.А.Акрамова, Ш.Р.Баратов, В.М.Каримова, К.К.Мамедов, Г.Б.Шоумаров, О.Б.Шамсиев и другие исследовали этнопсихологические особенности узбекской семьи, особенности межличностных отношений в семье, вопросы психологической помощи семье. Н.Р.Жуманиязова, Л.Р.Муминова, Л.В.Назирова, Д.А.Нуркельдиева, Л.Ш.Нурмухамедова и другие учёные провели исследования по вопросам социализации, психологического развития и особенностей взаимоотношений матери и ребёнка детей с диагнозом расстройства аутистического спектра. Однако в Узбекистане влияние психоэмоционального состояния матерей, имеющих детей с диагнозом расстройства аутистического спектра, на психическое развитие ребенка не изучалось как отдельный предмет исследования.

Учёными стран Содружества Независимых Государств (СНГ) такими, как В.И.Арбузов, Т.Б.Андреева, Е.Е. Алексеева, В.А.Абабков, О.Б.Богдошина, Е.Р.Баенская, В.М.Башина, А.А.Бодалев, Л.И.Божович, М.Боев, А.Я.Варга, Т.Н.Высотина, Л.И.Вассерман, Л.С.Выготский, К.Гильберт, С.С.Галаская, Л.Я.Гозман, Е. С.Гребельская, О. В.Гусаева, А. И. Захаров, Д. Н. Исаев, С.Н.Каштанова, И.Б.Карвасарская, М.М.Либлинг, К.С.Лебединская, И.Ю.Левченко, В.Н.Мясищев, И.И.Мамайчук, О.С.Никольская, Л.С.Печникова, Т.Н.Петерс, П. Е. Сухарева, Е.О.Смирнова, Н.В.Симашкова, В.Сатир, В.В.Ткачева, Л.Б.Шнайдер, Г.Эйдемиллер и другими с научной точки зрения рассмотрены особенности, типы и отличия детей с расстройствами аутистического спектра от других. Научно исследованы психические расстройства, методы медицинской, психолого-педагогической диагностики

этой категории детей, своеобразие родительских отношений с ними, организация детей с родителями, вопросы важности реабилитационных мероприятий .

Из зарубежных учёных G.Asperger, E.Bleyler, B.Bettelxeym, Baron Cohen, M.M.Bristol, L.Eyzenbergom, R.R.Fevyell, C.Gillberg, K.Gilbert, S.Harris, F.Happe, B.Hermelin, Dj.M.Itar, L.Kanner, M.E.Lamb, G.Mesibov, D.J.Meyer, D.T.Marsh, E.Schopler и другие научно исследовали причины аутизма и особенности детей с расстройствами аутистического спектра.

